

---

## FEVRAL OYI-“AJRIMGA QARSHI KURASHISH OYLIGI”



Qo'shtepa tumani Qumtepa mahalla fuqarolar yig'inida "Ajrimga qarshi kurashish oyligi" munosabati bilan "Oila muqaddas" mavusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda viloyat ishchi guruhi a'zosi, jurnalist X.Karimova, tuman hokimining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi M.Mo'ydinova, tuman IIB xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari M.Vaxobova, tuman xotin-qizlar targ'ibot guruhi rahbari D.Yusupova shuningdek, mahalla imomi va faollari ishtirok etdilar.



Davra suhbatlari davomida erta nikoh, ajrimlarning salbiy oqibatlari, oilaviy nizolarni samarali usulda hal etish, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini oshirish borasida tizimli ishlarni amalga oshirish masalalari o'rta tashlandi. Aniq chora-tadbirlarga qaratilgan vazifalar belgilab olindi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2022-02-19 12:17:46